

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

**RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI
ANDIJON FILIALI**

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi Andijon filiali direktori



G.A. Turaxodjaeva
janvar 2026

Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash
“Rentgen laboranti”
(sikl bo'yicha malaka oshirish guruhlar uchun)
ISHCHI O'QUV DASTURI
(144soat)

Andijon-2026

TUZUVChILAR:	
Sh.Turgunov	ADTI Tibbiy radiologiya kafedrası katta o'qituvchisi
M.Nurmatova	Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali o'qituvchisi
TAQRIZChILAR:	
N.I.Yakubov.	Andijon Davlat Tibbiyot Instituti Tibbiy radiologiya kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.n
A.A.Ablyazov	Andijon Davlat Tibbiyot Instituti Tibbiy radiologiya kafedrası professori, t.f.d.

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

“ 6 ” 01 2026 yil.

bayonnoma № 2

Uslubiy kengash raisi



G.I. Sodiqova

Ishchi o'quv dastur Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Andijon Filialining pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

“ 7 ” 01 2026 yil.

bayonnoma № 2

Pedagogik kengash raisi



G.A. Turaxodjayeva

1.Kirish.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida rentgent laboranti ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida ko'plab ishlar qilindi. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, Uzbekiston Respublikasi saklash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrugi, GIZ ni "O'zbekiston sog'liqni saqlash strategiyasini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash" loyihasi, ijrosini ta'minlash doirasida yaratilgan.

Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan.

O'quv dasturi "Rentgen laboranti" yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, 144-kredit (1 oy) davomida rentgen bo'limi laborant xodimlarini malakasini oshirish uchun yaratilgan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlantirish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Rentgen bo'limi laborant xodimlarini malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida rentgen laboranti mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. Rentgen laboranti har tomonlama yetuk, kasbiy rivojlantirish moduli, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, "Rentgen laboranti" fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- Amaliyotda sog'liqni saqlash tizimidagi qonunlarni, amaldagi meyoriy hujjatlarni rentgen laboranti faoliyatida qo'llay bilishni;

- umumiy malaka oshirish o‘quv jarayonini modulli tibbiy ta’lim tamoyili bo‘yicha, zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan davlat talablariga mos holda tuzilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko‘rsatiladigan profilaktik, tashxislash va parvarishlash uchun kerakli amaliy ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llashga tayyorgarlikni shakllantirish.
- sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me’eriy hujjatlarni ish faoliyatida qo‘llay olishga o‘rgatish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlarini shakllantirish;
- Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy rentgen apparatlari bilan ishlash usullarini.
- Rentgenologik xizmatning tashkil etilishi va unga qo‘yilgan texnik va gigiyenik talablarni.
- Rentgenologik tekshirishlarning alohida usullarini
- Bemorlarning rentgen diagnostik tadqiqotlarida joylashishi.
- Rentgen diagnostika apparati va kompyuter tomografda ishlash uchun standart amaliyot muolajalar (SAM)
- Apparatlarni o‘chirib yoqishni va bemorlarning turli a‘zo hamda tizimlarini tekshirishda, ularni joylashni hamda hujjatlarini olib borish tartiblarini o‘zlashtirishni.
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulodda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarni tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyatini yangilash.

1.3. Ta’lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O‘quv dastur bo‘yicha davolash profilaktika muassasalarida faoliya olib boruvchi rentgen laborantlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, ya’ni mutaxassisligini *tasdiklovchi xujjati* bo‘lgan hamshiralar, акушерка, фельдшерлар uchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Rentgen laborantlarining xuquqiy ma’suliyatlari, be’mor xuquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy xayotiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishdir, meyoriy xujjatlarni o‘rganish.
- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llay oladigan, shaxslararo muloqot ko‘nikmalari asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- Rentgenologik tekshirishlarning alohida usullarini;
- Rentgenologik bo‘limga kelgan bemorlarda zamonaviy apparatlar orqali turli tekshiruvlar o‘tkazish;
- Bemorlarning rentgen diagnostik tadqiqotlarida joylashishi;
- Rentgen diagnostika apparati va kompyuter tomografda ishlash uchun standart amaliyot muolajalar (SAM);

- Dozimترلarning tuzilishi hamda rentgen xonalaridagi himoyalash tadbirlarining tashkil etish.
- Mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirish, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan meyoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, zamonaviy rengenologik ,MRT,MSKT, UTT diagnostikasiga oid bo'lgan meyoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat xaftada, 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidolari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 8-30 da boshlanib, 13¹⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: tinglovchilarga tegishli namunadagi sertifikat beriladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI:

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- O'rta tibbiyot xodimining fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish;
- hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- so'rov o'tkazish, jismoniy ko'rikdan o'tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga

tibbiy kartani yozish

- bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- Tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- Rentgenologik bo'limga kelgan bemorlarda zamonaviy apparatlar orqali turli tekshiruvlar o'tkazish;
- Bemorlarning rentgen diagnostik tadqiqotlarida joylashishi;
- Rentgen diagnostika apparati va kompyuter tomografda ishlash uchun standart amaliyot muolajalar (SAM);
- MRT va KT apparatlariga bemorlarni tayyorlashni o'ziga xos qonun qoidalari va xususiyatlarini.
- MRT va KT apparatlari kompyuter orqali boshqarilishi va bemorlarni ro'yxatga olish tartib koidalari xaqida tushunchalarini.
- bemorlarni MRT va KT apparatlariga yotqazish topogrammani to'g'ri olishni;
- rentgen,MRT,KT,MSKT,UZI apparatlarni o'chirib yoqishni va bemorlarning turli a'zo hamda tizimlarini tekshirishda, ularni joylashni hamda hujjatlarini olib borish tartiblarini o'zlashtirishni;

3. "Rentgen laboranti " malaka oshirish yo'nalishi o'quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	18	14		
1.1	Modul:O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.1.1	Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari.	2	2	-		

1.1.2	Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelish omillari va javobgarlik masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid milliy qonunchilik tahlili va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, oldini olishga doir amalga oshirilayotgan ishlar	2	2	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.2.1	Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning hamshiralik amaliyotidagi o‘rni	2	2	-		
1.2.2	Raqamli hamshiralik amaliyoti - elektron tibbiy yozuvlar, bemor ma’lumotlarini kiritish va tahlil qilish	2	-	2		
1.2.3	Ma'lumotlar xavfsizligi, sun'iy intellekt va yangi tibbiyot platformalari	2	-	2		
1.3	Modul: Infektsion nazorat.	6	4	2		
1.3.1	Infektsion nazorat va sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar.	2	2	-		
1.3.2	Karantin va o‘ta havfli yuqumli kasalliklar profilaktikasi.OIV /OITS haqida tushuncha.	2	2	-		
1.3.3	Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi.	2	-	2		
1.4	Modul: Shaxslar o‘rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.4.1.	O‘rta tibbiyot xodimlarini shaxslararo muloqat ko‘nikmalari. Etika va deontologiya.	2	2	-		
1.4.2.	Samarali muloqat ko‘nikmalari.	2	2	-		
1.4.3.	Hozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari va ularning yechimi.	2	-	2		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
1.5.1	Salomatlik tushunchasi. Salomatlik darajasiko‘rsatkichlari	2	2	-		
1.5.2	Salomatlik indeksini baholash.	2	-	2		
1.5.3	Sog‘lom turmush tarzi yo‘nalishlari.To‘g‘ri ovqatlanish mezonlari.	2	2	-		
1.5.4	Jismoniy faollik.Asosiy sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar.	2	-	2		
1.5.5	Jismoniy mashqlarni turli yoshdagi sog‘lom odamlarda, hamda bemorlarda qo‘llash metodikasi.	2	-	2		
2.0.	Mutaxassislik fanlar moduli.	104	44	60		

2.1	Modul:Rentgenologik xizmatining tashkil etilishi va unga qo'yilgan texnik va gigienik talablar.	18	8	10		
2.1.1	O'zbekistonda rentgenologik xizmatini tashkil etilishi.	2	2	-		
2.1.2	Rentgen nurlarining xossalari va hususiyatlari.	2	2	-		
2.1.3	Zamonaviy rentgen tekshirish xonasi, uning tuzilishi va jihozlanishi.	2	-	2		
2.1.4	SanQvaM № 019-06 ning mazmun-mohiyatini o'rganish.	2	-	2		
2.1.5	Rentgen xonasida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi. Rentgen kabinetga qo'yilgan gigienik talablar.	2	-	2		
2.1.6	Ionlanuvchi nurlarning biologik ta'siri. Birlamchi radiatsion-kimyoviy reaksiyalari.	2	-	2		
2.1.7	Rentgen bo'limi xodimlari mehnatini muhofaza qilish. Rentgen bo'limi va bo'lim xodimlariga yo'riqnoma.	2	2	-		
2.1.8	Xodimlar va tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalari, ularga qo'yilgan talablar.	2	2	-		
2.1.9	Xodimlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanish. Tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanish.	2	-	2		
2.2	Modul:Dozimetriya asoslari.	14	6	8		
2.2.1	Dozimetriya asoslari. Dozimetrik asboblari va ularning ishlash prinsipi.	2	2	-		
2.2.2	Dozimetrik o'lchash usullari.	2	-	2		
2.2.3	Nurlanish dozalari.	2	-	2		
2.2.4	Doza quvvatini havoda, badan ustida, chuqurlikda o'lchash va baholash.	2	-	2		
2.2.5	Xodimlar va bemorlarni nurlanishdan saqlash usullarini qo'llash.	2	-	2		
2.2.6	Ish joylarda va boshqa xonalarda radiatsiyaning ruxsat etilgan darajalari va ularni aniqlash.	2	2	-		
2.2.7	Favqulodda xolatlar va radiatsion avariya holatlarda ko'riladigan chora-tadbirlar.	2	2	-		
2.3	Modul:Zamonaviy rentgen diagnostikasi	12	6	6		

2.3.1	Zamonaviy rentgen diagnostikasi. Zamonaviy raqamli rentgen tekshiruv usullarining afzalliklari.	2	2	-		
2.3.2	Zamonaviy rentgen apparatlarining ishlatilishi bo'yicha turlari.	2	2	-		
2.3.3	CDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipi va ularda ishlash.	2	-	2		
2.3.4	DDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipi va ularda ishlash.	2	-	2		
2.3.5	CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida ishlash uchun bemorlarni tayyorlash. Ko'rsatma va moneliklar.	2	-	2		
2.3.6	CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida topogrammalarni qo'llash.	2	2	-		
2.4	Modul: Fotolaboratoriya xonasining o'ziga xos xususiyatlari.	18	8	10		
2.4.1	Fotolaboratoriya xonasining tuzilishi, jihozlanishi va unga bo'lgan talablar.	2	2	-		
2.4.2	Fotolaboratoriya buyumlarining asosiy turlari va xossalari.	2	-	2		
2.4.3	Rentgen va flyurografiya plyonkalarining turlari va o'lchamlari.	2	-	2		
2.4.4	Fotobuyumlarni densitometrik tavsifi.	2	-	2		
2.4.5	Rentgenografiya buyumini kimyoviy usulda bosqichma -bosqich ishlash usuli.	2	2	-		
2.4.6	Rentgen va fotobuyumlarni ishlash uchun kimyoviy vositalar, ularning sifatiga qo'yilgan talablar	2	-	2		
2.4.7	Tayyorlangan eritmalarni tozalash.	2	2	-		
2.4.8	Eritmalarni tayorlash, saqlanish muddati va uni aniqlash.	2	2	-		
2.4.9	Eritmalarni tayorlash, saqlanish muddati va uni aniqlash.	2	-	2		
2.5	Modul: Rentgen terapiya asoslari. Bemorlarning rentgen diagnostik tadqiqotlarida joylashishi.	18	6	12		
2.5.1	Tana a'zolarining tuzilishi. Tayanch – harakat apparati va uning hususiyatlari. Rentgen terapiya asoslari.	2	2	-		

2.5.2	Qisqa va uzoq masofadan turib nur bilan davolash usullari.	2	2	-		
2.5.3	Rentgen terapiyaning kontaktli usulini qo'llash.	2	-	2		
2.5.4	Kontrast moddalar yordamida rentgenologik tekshirish usuli, ko'rsatma va mone'liklar.	2	2	-		
2.5.5	Kontrast moddalar yordamida rentgenologik tekshirish usulini qo'llash.	2	-	2		
2.5.6	Rentgen terapiyani bemorlarda qo'llash tartibi.	2	-	2		
2.5.7	Zamonaviy rentgenologik tekshirishning alohida usullarini o'tkazish.	2	-	2		
2.5.8	Bemorlarda flyurografiya tekshiruvini o'tkazish.	2	-	2		
2.5.9	Ultratovush diagnostikasini o'tkazish.	2	-	2		
2.6	Modul: Rentgen diagnostika apparati va kompyuter tomografda (MRT, KT, MSKT, UTT) ishlash uchun standart amaliyot muolajalar (SAM)	18	6	12		
2.6.1	Magnit rezonans tomografiyasi va kompyuter tomografiyasi tekshiruvlari va ularning afzalliklari.	2	2	-		
2.6.2	MRT, KT, MSKT , UTT larni ishlash prinsipi.	2	-	2		
2.6.3	KT va MRT tekshiruvlarini rejali ravishda o'tkazish uchun ko'rsatma va mone'liklar.	2	-	2		
2.6.4	Suyaklar, bo'g'imlar, yumshoq to'qimalarni magnit rezonans tomografiya va kopyuter tomografiyasiga bemorlarni tayyorlash.	2	2	-		
2.6.5	Suyaklarni magnit rezonans tomografiya va kompyuter tomografiyasini o'tkazish.	2	-	2		
2.6.6	Bo'g'imlarni, yumshoq to'qimalarni magnit rezonans tomografiya va kopyuter tomografiyasini o'tkazish.	2	-	2		
2.6.7	Ichki a'zolar magnit rezonans tomografiya va kopyuter tomografiyasini o'tkazish.	2	2	-		
2.6.8	Bemorlarni MSKT tekshiruviga tayyorlash va o'tkazish.	2	-	2		
2.6.9	Bemorlarni UTT tekshiruviga tayyorlash va o'tkazish.	2	-	2		
2.7	Modul:Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.	6	4	2		

2.7.1	Favqulodda vaziyatlar. Tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, Tibbiy saralash bosqichlari.	2	2	-		
2.7.2	Ommaviy talofat o'chog'ida jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish va birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillari.	2	2	-		
2.7.3	Terminal holatlarda birinchi yorda ko'rsatish. Yurak-o'pka reanimatsiyasi va uni bajarish algoritmi .	2	-	2		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-	-	4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	62	74	4	4

**“Rentgen laboranti ” malaka oshirish kursi o‘quv
modullarining mazmuni.**

**1.1Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati
4 kredit**

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	4 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	PF-158- “O‘zbekiston 2030” strategiyasi mazmun mohiyati haqida Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya nima? Tibbiyotdagi islohotlar – bu sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, moliyaviy va tashkiliy samaradorlikni yaxshilash bo‘yicha amalga oshiriladigan o‘zgarishlar. Misol: elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, poliklinika va dorixonalarni raqamlashtirish, diagnostika va davolash standartlarini takomillashtirish. Korrupsiya – bu tibbiyot tizimida qonunga xilof ravishda shaxsiy foyda olish uchun amalga oshiriladigan harakatlar. Misol: noto‘g‘ri retsept yozish, tibbiy xizmat uchun ortiqcha to‘lov, shifokor tomonidan bemorning manfaatlarini e’tiborsiz qoldirish. Tibbiyot mutaxassisi uchun bu ikki jihatni tushunish va ularga qarshi samarali kurashish kompetensiya talab qiladi. 2. Kompetensiya tushunchasi Kompetensiya – bu muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malaka majmui. Tibbiyotdagi islohotlar va korrupsiya bo‘yicha zarur kompetensiyalar

	A) Bilim kompetensiyalari Tibbiyot tizimidagi islohotlar, ularning maqsad va prinsiplarini bilish Sog'liqni saqlash qonunchiligi va etika normalarini tushunish Korrupsiyaning turlari va oqibatlarini bilish B) Amaliy ko'nikmalar Sog'liqni saqlash jarayonlarini samarali va shaffof boshqarish Resurslardan tejamkor va qonuniy foydalanish Korrupsiya holatlarini aniqlash va ularga munosabat bildirish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Tibbiyot jarayonlarida islohotlarni baholash Korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olish strategiyasini ishlab chiqish Qaror qabul qilishda axloqiy va qonuniy asoslarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar, jamoa va rahbariyat bilan shaffof va samarali muloqot qilish Korrupsiyaga qarshi tashabbuslarni targ'ib qilish Axborot va trening orqali xodimlarni islohotlar va etikaga o'rgatish E) Shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalar Axloqiy prinsiplarni saqlash Javobgarlik va fidoyilik Sog'liqni saqlash tizimini shaffof va adolatli qilishga intilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	1. Sovg'alar va ishbilarmonlik mehmondo'stligi bilan bog'liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar: • Qachon sovg'a berish yoki qabul qilish qonunga zid va korrupsiya sifatida baholanishi mumkinligini; • Qonuniy ishbilarmonlik munosabatlari bilan shaxsiy manfaat o'rtasidagi farqni; • Qonun va ichki hujjatlarda belgilangan sovg'alarni qabul qilish/bosh tortish qoidalarini; • Sovg'a yoki mehmondo'stlik orqali ta'sir o'tkazish holatlari bilan bog'liq jiddiy xavf-xatarlarni. • Uchinchi shaxslar orqali pul yoki sovg'a qabul qilish kabi yashirin xavflarni aniqlashni. 2. Korrupsiyaviy harakatlar tushunchasi va ularning turlari: • Korrupsiyaviy xatti-harakatlar (pora berish/olish,

	suiste'mol qilish, manfaatlar to'qnashuvi, soxta hujjat tayyorlash va h.k.) nima ekanini; • Davlat xizmatchilari, tibbiyot xodimlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlar turlari. 3. Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik: • Qonun va ichki meyoriy hujjatlarga ko'ra xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy buzilishlarni; • Intizomiy choralar (hayfsan, lavozimdan ozod etish, tanbeh va h.k.) qanday holatlarda qo'llanilishini; • Xizmat tekshiruvi, intizomiy ish yuritish va qaror qabul qilish tartibini. 4. Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik: • O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiya bilan bog'liq moddalar (210-modda – pora berish, 211-modda – pora olish, 205-modda – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish va b.); • Jinoyat tarkibi, javobgarlik turlari va jazo choralari (jarima, ozodlikdan mahrum etish va h.k.); • Aybdor shaxslarga nisbatan amaliyotda qanday jazo qo'llanilishi mumkinligi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	1.Sovg'alar va mehmondo'stlik bilan bog'liq xatarlarni baholash va to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi • Qonuniy va noqonuniy sovg'a/mehmondo'stlik o'rtasidagi farqni anglash; • Sovg'a yoki xizmat qabul qilishdan bosh tortish yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilish; • Ishbilarmonlik munosabatlarida xolislik va kasb etikasiga amal qilish. 2. Fuqarolar bilan tozalik va shaffoflikka asoslangan munosabat o'rnatish ko'nikmasi • O'zaro munosabatlarda xizmat vazifalariga tayanish, shaxsiy manfaatlardan qochish; • Kontragentlar bilan kelishuvlarda korrupsiya xavfini oldindan ko'ra bilish; • Tashqi ta'sirlarga moyillikdan saqlanish va qarorlarni mustaqil qabul qilish. 3. Hujjatlar ekspertizasi va ijrosini xolis va shaffof amalga oshirish ko'nikmasi • Hujjatlar bilan ishlashda faktlar va dalillarga tayanish; • Ijro nazorati jarayonida "shaxsiy munosabatlar" emas,

	qonun va reglamentlarga asoslanish; • Hujjatlar orqali manfaatli tarafni qo‘llab-quvvatlash xavfini aniqlash va undan saqlanish. 4. Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabardor qilish ko‘nikmasi • Korrupsiya holatlarini qanday va qayerga xabar qilishni aniq bilish; • Xabar berishdagi anonimlik, himoya va huquqiy kafolatlardan xabardor bo‘lish; • Xabar mazmunini aniq, asosli va ishonchli tarzda shakllantirish. 5. Qonunga muvofiq murojaat qilish va xabar berish ko‘nikmasi Korrupsiya holatlari yuzaga kelganda qanday organlarga, qanday tartibda murojaat qilishni bilish;
O‘quv mazmuni:	moduli Korrupsiya tushunchasi va uning turlari haqida bilim berish; Milliy va xalqaro qonunchilikni tahlil qilish; Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish; Talabalarda huquqiy madaniyatni shakllantirish; Amaliy holatlar tahlili asosida huquqiy fikrlashni rivojlantirish. 1. Korrupsiya tushunchasi – Korrupsiya nima ekanligi, uning ta’rifi, mohiyati va kelib chiqish sabablari; – Korrupsiyaning asosiy turlari: pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste’mol qilish, manfaatlar to‘qnashuvi va h.k. 2. Milliy qonunchilik asoslari – “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy normalari; – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksdagi korrupsiyaga oid moddalar; – Korrupsiyaga qarshi Milliy strategiya va dasturlar mazmuni. 3. Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari – Korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining maqsadlari va vazifalari; – Hukumat organlari va jamoatchilikning bu sohadagi o‘rni; – Ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash orqali korrupsiyani kamaytirish usullari. 4. Huquqiy madaniyat va ong – Korrupsiyaning jamiyatga va davlatga keltiruvchi zararlari haqida tushuncha; – Fuqarolarning huquqiy bilimi va mas’uliyatining

	ahamiyati; – Etik meyorlarga amal qilish va halollikning ahamiyati. 5. Amaliy misollar tahlili orqali bilimlarni mustahkamlash – Real hayotdagi korrupsiya holatlarini tahlil qilish; – Ularni huquqiy nuqtai nazardan baholash; – Qonuniy va samarali yechimlar taklif qilish qobiliyatini rivojlantirish. Tibbiyot sohasida korrupsiyaviy jinoyatlar tushunchasi – Pora olish va berish, xizmat mavqeidan suiiste'mol qilish, dori vositalari bilan bog'liq jinoyatlar. 2. Korrupsiyaviy jinoyatlarning asosiy sabablari – Nazoratning sustligi, tizimdagi shaffoflik yetishmasligi, huquqiy madaniyat pastligi, jamiyatda jazosizlik hissi. 3. Ichki va tashqi omillar – Tibbiyot muassasalaridagi tashkiliy kamchiliklar; – Aholining korrupsiyaga nisbatan murosali munosabati. 4. Korrupsiya uchun javobgarlik turlari – Jinoiy javobgarlik: Jinoyat kodeksining 210, 211, 212-moddalari; – Ma'muriy va intizomiy javobgarlik: jarima, ishdan bo'shatish, ogohlantirish.
Adabiyotlar: 1. PF-158-son 11.09.2023й. „O‘zbekiston-2030“strategiyasi 2. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-sonli Qonuni // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3088008. 3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/111453. 4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://www.lex.uz/acts/111460. 5. O‘zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/97664. 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-sonli Qarori [Elektron manba]. URL: https://lex.uz/docs/3105125. Elektron ta’lim resurslari: -www.minzdrav.uz– www.gov.uz www.press-service.uz www.parlament.gov.uz - www.uza.uz - www.cbu.uz–	

1.2. Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar bo'yicha zarur kompetensiyalar A) Bilim kompetensiyalari Raqamli texnologiyalar va ularning tibbiyotdagi qo'llanilishini bilish Elektron sog'liqni saqlash tizimi (EHR/EMR) va telemeditsina printsiplarini tushunish Ma'lumot xavfsizligi va bemor maxfiyligini himoya qilish qonunchiligini bilish AI va diagnostika dasturlarining asosiy ishlash printsiplari B) Amaliy ko'nikmalar Elektron sog'liqni saqlash tizimidan samarali foydalanish Telemeditsina orqali bemorlar bilan masofaviy konsultatsiya o'tkazish Raqamli diagnostika vositalarini ishlatish (masalan, laboratoriya natijalarini tahlil qilish) Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va uzatish C) Analitik va qaror qabul qilish kompetensiyalari Raqamli ma'lumotlardan tahlil qilish va xulosalar chiqarish Diagnostika va davolash bo'yicha qarorlarni AI va boshqa raqamli vositalardan foydalangan holda qabul qilish Ma'lumotlar xavfsizligi va etik cheklovlarni hisobga olish D) Kommunikativ kompetensiyalar Bemorlar va hamkasblarga raqamli texnologiyalarni tushuntirish Telemeditsina konsultatsiyalarida aniq va samarali muloqot qilish Raqamli tizimlar bo'yicha jamoa bilan hamkorlik qilish
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kompyuterga axborot kiritish va axborot olish qoidalarini; • kompyuterni tuzilishi to'g'risida qisqacha

	ma'lumotni, kompyuterning foydali va zararli tomonlarini, kompyuterda ishlash jarayonida sanitariya qoidalariga rioya qilishni; • tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ishlashni; • sog'lom jamiyat qurishda axborotlashtirishning o'rnini; • sog'liqni saqlash tizimini axborotlashtirishda jahon tajribalarini; • axborotlarga ishlov berish, kiritish va chiqarish qurilmalari va ularning tavsifini; • tibbiyotda aloqa va kommunikatsiya vositalarini; • ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish; • xozirgi kunda tibbiyotda informatsion texnologiyalari sohasi rivojlanib kelmoqda-tibbiyot xodimlari uchun planshetlardan foydalanib, <i>online</i>-registratsiya qilish va ulardan foydalana olishi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• kompyuter texnikasi bilan ishlashda texnika havfsizligini; • dasturlar bilan ishlashni; • ma'lumotlar bazasi yaratish, ular ustida ishlashni va dasturlash asoslarini; • kompyuter grafik usullaridan foydalana olishni; • tibbiy axborotlar almashinuvi va uni izlashda internet tarmog'ida ishlashni; • elektron pochta dasturi bilan ishlashni; • AKT sog'liqni saqlash tizimida qo'llashni.
O'quv moduli mazmuni:	Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

- 1.O.N.Djurayev Axborot tizimlari va texnologiyalari (tarmoqlar va sohalar buyicha) Toshkent 2020y
- 2.Aminov S.M “Axborot kommunikatsion texnologiyalar” 2020 y
- 3.Tursunov, Nazarov “Ta’limda axborot texnologiyalari” 2021 y
- 4.Ayupov Ravshan Hamdamovich “Ta’limda axborot texnologiyalari” TDPU, 2020 y

5. Informatika asoslari

Mualliflar: M. Aripov, A. Haydarov

Yuklab olish:

Informatika asoslari PDF

(https://uzsmart.uz/kitoblar/view/6551?utm_source=chatgpt.com)

6. Informatika va axborot texnologiyalari

Muallif: Z.S. Abdullayev

7. Kompyuter savodxonligi kitobchasi

Yuklab olish:

Kompyuter savodxonligi PDF(https://pdfbox.uz/books/uzbek/11329-kompyuter-savodxonligi-kitobchasi?utm_source=chatgpt.com)

8. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar

Mualliflar: Hoshimov, Tulyaganov

9. Informatika (klassik darslik)

Muallif: N.V. Makarova

Elektron ta’lim resurslari:1. DMED haqida asosiy tushuncha (Kapital.uz)2. O‘zbekcha tayyor adabiyotlar (PDF / DOC) (soff.uz)2. DMED bo‘yicha test savollar (Hujjat24)**1.3.Modul: Infektsion nazorat**

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyani ng shakllanishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikmalar	Infektsion nazoratda kompetensiya Bu — tibbiyot xodimi yoki mutaxassisning bilim, ko‘nikma va mas’uliyatli yondashuvi majmui. Kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Bilimlar: • Infektsion kasalliklar yuqish yo‘llari • Sanitariya-epidemiologik me‘yorlar • Dezinfektsiya va sterilizatsiya turlari Amaliy ko‘nikmalar: • To‘g‘ri qo‘l yuvish texnikasi • Himoya vositalarini to‘g‘ri kiyish va yechish

	• Asboblarni xavfsiz qayta ishlash Mas’uliyat va xulq-atvor: • Qoidalarga qat’iy rioya qilish • Infeksiya xavfini baholay olish • Favqulodda holatlarda tezkor choralar ko‘rish
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlarini (SanQvaN); • davolash-profilaktika muassasalariga qo‘yiladigan sanitar talablarni va “infeksion nazorat komissiyasi” ish faoliyatini; • sanitar me’yor va qoidalar bo‘yicha amaldagi hujjatlarni; • OIV/OITSga oid normativ hujjatlarni; • OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasini; • OIV yuqish yo‘llari, tekshirish usullari, klinikasi va bemorlar parvarishini; • kasalliklardan (COVID -19) himoyalaniş tamoyillarini.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda SanQvaMlarga rioya qilishni; • muolajalar vaqtida avariya holatlari yuzaga kelishini oldini olishni; • avariya holatlari yuzaga kelganda o‘tkaziladigan chora-chadbirlar yig‘indisini; • o‘ta xavfli va karantin infeksiyalarda epidemiyaga qarshi o‘tkaziladigan chora-tadbirlarni; • himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibini. • qo‘llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo‘llarni yuvish tartibini;
O‘quv moduli mazmuni:	Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda akusherlarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish. Yuqumli kasalliklar (o‘ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSga oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezini, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi. Kasalliklardan (COVID19) himoyalaniş tamoyillari. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.
Tavsiya etiladigan adabiyotlar 1. San. Q va M. № 0342/17 “ DPMlarda shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi” 10 yanvar 2017 y. 2. San. Q va M. № 03-17-15.”O‘zbek.Res.davolash- profilaktika muassasalarida chiqindilarni yig‘ish,saqlash va yo‘q qilish sanitariya qoidalari va meyorlari” 3.V.N.Turaqulov,X.A.Raxmatova.N.A.Avezova.”Yuqumli kasalliklarda xamshiralik parvarishi”O‘quv qo‘llanma.Navoi nashriyot.2019yil.	

4.F.I Salomova, Sh.T Iskandarova “Gigiyena. Tibbiy ekologiya” Toshkent-2020

5.S.B. Israilova “Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati” o’quv qo’llanma. Turon nashr. Samarqand-2026 <https://e-library.sammu.uz/uz/book/5400>

6.COVID-19 bo’yicha milliy qo’llanma JSST. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2020 yil 26 mart.

7.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi sayti

→ **rasmiy sanitariya me’yorlari va hujjatlar**

8.ZiyoNET

→ bepul darsliklar va o’quv qo’llanmalar

Elektron ta’lim resurslari:

<http://www.edu.uz>

<http://www.pedagog.uz>

www.tma.uz,

www.lex.uz

<https://ru.pinterest.com/vkhamidov/>

1.4. Modul: Shaxslar o’rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat.

O’quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O’quv moduli mazmuni	Jamiyat va bemorning salomatligi yo’lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko’rsatish. Bemorga diqqat e’tibor va g’amxo’rlik bilan munosabatda bo’lish va o’zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an’analarini saqlash. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg’ulariga rioya qilish. Bolaning rivojlanishi uchun rag’batlantiruvchi muhit yetishmasligi. Ilk yoshdagi bolalar hayotiga xavf soluvchi belgilarni aniqlash va bartaraf qilish uchun tavsiyalar.
O’quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Kasbning oliyjanob an’analarini saqlashni. • Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e’tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko’nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilishini. • Genderning salomatlikka ta’sirini. • Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to’g’risida tushunchani.

	• Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilishni. • Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni. • Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilishni. • Neytral va xavfsiz muhitni yaratishni. • Salbiy munosabat va fikrlardan qochishni. • Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlashni.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	Faol tinglash va empatiyani. Bemorning ehtiyojlarini baholashni. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilishni. Tushunarli tildan foydalanishni. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyatini. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini. Tibbiy maslahatni tartiblashtirishni. Noverbal tildan foydalanishni. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olishni. Samarali muloqotning xususiyatlarini •
Adabiyotlar:	1.Q.Inomov "Hamshiralik ishi asoslari" Toshkent 2009 yil 2. A.G.Gadayev "Ichki kasalliklar propedevtikasi" darslik Toshkent 2023yil Elektron ta'lim resurslari http://www.edu.uz http://www.pedagog.uz www.tma.uz, www.lex.uz

1.5. Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar	Jismoniy faollik va sog'lom turmushda kompetensiyalar Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: • Sog'lom turmush qoidalari bo'yicha bilimga ega bo'lish • Shaxsiy sog'liqni baholay olish va nazorat qilish • To'g'ri ovqatlanish rejasini tuzish ko'nikmasi • Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish • Sog'lom hayot tarzini boshqalarga targ'ib qila olish
O'quv moduli	• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi

yakunida tinglovchi bilishi lozim:	ko'rsatkichlarini; • sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini; • salomatlikka ta'sir etuvchi omillar: • irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni; • atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini; • salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni; • to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini; • kun tartibini to'g'ri tashkil etishni; • jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikka ta'sirini; • zararli odatlarning organizmga ta'sirini; • tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etishni; • sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni;
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni; • sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni; • individual salomatlik va uni asrash yo'llarini; • jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni; • maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishni; • inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini; • jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini; • Skandinaviya yurish usullarini.
O'quv moduli mazmuni:	Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy

	ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.
Tinglovchilarni mustaqil o'zlashtirishi uchun adabiyotlar ro'yxati: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrda "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4887-sonli qarori. 2. VMQ 2025 y. 6-may № 297 " Sog'liqni saqlash va ta'lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan " Toza qo'llar" dasturi. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4063-sonli qarori. 4. SSV buyrug'i № 97, 2024 y, 27 mart. "Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlarni samarali o'tkazish, aniqlangan kasalliklar bo'yicha manzilli sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish" to'g'risida. 5. SSV ning № 175-buyrug'i, 2025 yil, 20-iyun. "Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 6. Sh. Zokirxo'jayev, A. Gadoyev, M. Turimbetova "Dietologiya " 2023 yil 7. A. Gadayev, L. Musadjanova, N. Pirmatova, N. Mo'minova "Shifobaxsh taomlar " 2017 yil. 8. Sh. Qurbonov, A. Qurbonov "To'g'ri ovqatlanish qoidalari " 2014 yil 9. Elektron ta'lim resurslar: 1. inlibrary.uz – sog'lom turmush maqolalari 2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar 3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo'yicha tavsiyalar 4. yuz.uz – sog'lom turmush dasturlari 5. hujjat24.uz – o'quv materiallar	

2.1. Modul: Rentgenologik xizmatning tashkil etilishi va unga qo'yilgan texnik va gigiyenik talablar.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Rentgenologik xizmatni tarixin va tashkil etilishini. Rentgen nurlarining kashf etilish tarixini. Rentgen nurining xossalini. Zamonaviy tibbiyotda bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yishni. O'zbekistonda mehnatni muhofaza etishni tashkil etishni. Texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish ishlarini. Sanitariya sohasi hamda texnika xavfsizligi qonunlarining buzilishi bo'yicha javobgarlikni. Mexanik shikastlanish xavfidan saqlashni. Elektr toki orqali jarohatlanishning oldini olish

	bo'yicha tadbiriy choralar ko'rishni. Elektr toki bilan jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni. Rentgen xonalarida ionlanuvchi nurdan saqlash choralari uyushtirishni. Himoyalovchi vositalardan foydalanishni. Xodimlar va tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanishni. Zamonaviy rentgen tekshirish xonasi, uning tuzilishi va jihozlanishi. Rentgen kabinetga qo'yilgan gigienik talablar. SanQvaM №019-06 ning mazmun-mohiyati. Texnika xavfsizligi qoidalari. Sanitariya sohasi hamda texnika xavfsizligi qonunlarining buzilishi bo'yicha javobgarlik. Mexanik shikastlanish xavfidan saqlash. Elektr toki orqali jarohatlanishning oldini olish bo'yicha tadbiriy choralar ko'rish. Elektr toki bilan jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Rentgen xonasida texnika havfsizligi qoidalariga amal qilinishi. Ionlanuvchi nurlarning biologik ta'siri. Nurning biologik natija berishiga ta'sir etiladigan sabablari. Birlamchi radiatsion-kimyoviy reaksiyalari. Rentgen xonalarida ionlanuvchi nurdan saqlash choralari uyushtirish. Himoyalovchi vositalardan foydalanish. Xodimlar va tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalari, ularga qo'yilgan talablar. Xodimlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanish. Tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanish. Rentgen bulimi xodimlari mehnatini muhofaza qilish. Rentgen bo'limi va bo'lim xodimlariga yo'riqnoma.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• Rentgenologik xizmatni tashkil etilishi tarixini; • rentgen nurlarining kashf etilish tarixini; • rentgen nurining xossalari; • zamonaviy tibbiyotda bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yishda rentgenologik xizmatning o'rnini; • O'zbekistonda mehnatni muhofaza etishni tashkil etishni; • texnika xavfsizligi qoidalari; • sanitariya sohasi hamda texnika xavfsizligi qonunlarining buzilishi bo'yicha javobgarlikni; • mexanik shikastlanish xavfidan saqlanish va elektr toki orqali jarohatlanishni oldini olish qoidalari; • rentgen xonalarida ionlanuvchi nurdan saqlash choralari; • himoyalovchi vositalardan foydalanish qoidalari;

	• ionlanuvchi nurlarning biologik ta'sirini; • birlamchi radiatsion-kimyoviy reaksiyalarni mohiyatini; • nurning biologik natija berishiga ta'sir etiladigan sabablarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Rentgenologik xizmat ko'rsatish muassasalarida texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni; • mexanik shikastlanish xavfidan saqlanish va elektr toki orqali jarohatlanishni oldini olish qoidalariga amal qilishni; • elektr toki bilan jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni; • shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirishni; • rentgen xonalarida ionlanuvchi nurdan saqlash choralarini amalga oshirishni; • xodimlar va tekshiriluvchi bemorlarni himoya qilish moslamalaridan foydalanish qoidalariga amal qilishni.

2.2. Modul: Dozimetriya asoslari.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	14 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Dozimetriya asoslari. Dozimetrik asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi. Dozimetrik asboblarning tuzilishi va asoslari, dozimetrik o'lchash usullari. Nurlanishning dozalari. Doza quvvatini havoda, badan ustida va chuqurlikda baholash. Ish joylarda va boshqa xonalarda radiatsiyaning ruxsat etilgan darajasi to'g'risidagi tushuncha. Xodimlar va bemorlarni nurlanishdan saqlash usullari. Rentgen tekshiruvi kabinetining tarkibi. Rentgen xonasiga qo'yilgan talablar. Foto laboratoriyaga qo'yilgan talablari. Boshqaruv pulti xonasida rentgen laborant rentgenografiya va rentgenoskopiyani maxsus boshqaruv pulti orqali amalga oshirish. Favqulotda xolatlar va radiatsion avariya holatlarda ko'riladigan chora-tadbirlar.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• dozimetriya asoslarini; • dozimetrik asboblarning tuzilishi va asoslarini; • dozimetrik o'lchash usullarini;

	• nurlanishning dozalarini; • doza quvvatini havoda, badan ustida va chuqurlikda baholash usullarini; • ish joylarda va boshqa xonalarda radiatsiyaning ruxsat etilgan darajasi to'g'risidagi tushunchani; • xodimlar va bemorlarni nurlanishdan saqlash usullarini; • rentgen tekshiruvi kabinetining tarkibini; • rentgen xonasiga va foto laboratoriyaga qo'yilgan talablarni.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• dozimetrik asboblarni ishlatishni; • dozimetrik o'lchash usullarini qo'llashni; • doza quvvatini havoda, badan ustida va chuqurlikda o'lchash va baholashni; • ish joylarda va boshqa xonalarda radiatsiyaning ruxsat etilgan darajasini aniqlashni; • xodimlar va bemorlarni nurlanishdan saqlash usullarini qo'llashni; • favqulodda holatlar va radiatsion avariya holatlarida chora-tadbirlarni amalga oshirishni.

2.3. Modul: Zamonaviy rentgen diagnostikasi.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Rentgen texnika asoslari. Zamonaviy rentgen diagnostikasi. Zamonaviy raqamli rentgen tekshiruv usullarining afzalliklari. Zamonaviy rentgen tekshiruv kabinetining tarkibi. Zamonaviy rentgen apparatlarining ishlatilishi bo'yicha turlari. Zamonaviy rentgen diagnostika apparatlaridan foydalanish. CDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipi va ularda ishlash. DDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipi va ularda ishlash. CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida ishlash uchun bemorlarni tayyorlash. Ko'rsatma va mone'liklar. CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida topogrammalarni qo'llash. Ko'tariluvchi stol-shtativlarning asosiy tarkibiy qismlari. Rentgen naychalari, tasnifi, tuzilishi va ularning ishlash qoidalari. Kenotronlar, ularning tuzilishi, ishlatilishi. Kassetalar, ularning turlari va tuzilishi.

O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	• rentgen texnika asoslarini; • zamonaviy rentgen diagnostikasini; • zamonaviy raqamli rentgen tekshiruv usullarining afzalliklarini; • zamonaviy rentgen apparatlarining ishlatilishi bo‘yicha turlarini; • zamonaviy rentgen diagnostika apparatlaridan foydalanish qoidalarini; • CDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipini; • DDR sistemadagi rentgen apparatining ishlash prinsipini; • CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida ishlash uchun bemorlarni tayyorlash qoidalarini; • CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida ishlash uchun bemorlarni tekshirish uchun ko‘rsatma va mone‘liklarni; • CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida topogrammalarni qo‘llash qoidalarini; • kenotronlar, ularning tuzilishi, ishlatilishini; • Kassetalar, ularning turlari va tuzilishini.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	• Zamonaviy rentgen diagnostika apparatlaridan foydalanishni; • CDR sistemadagi rentgen apparatida ishlashni; • DDR sistemadagi rentgen apparatlarida ishlashni; • CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida ishlash uchun bemorlarni tayyorlashni; • CDR va DDR sistemalaridagi rentgen apparatlarida topogrammalarni qo‘llashni.

2.4. Modul: Fotolaboratoriya xonasining o‘ziga xos xususiyatlari.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	Fotolaboratoriya xonasining tuzilishi, jihozlanishi va unga bo‘lgan talablar. Fotolaboratoriya xonasi ishini tashkil etishda amaldagi SanMvaQ ga rioya qilish. Fotolaboratoriyada ish jarayonini tashkil etish. Fotolaboratoriya xonasining jihozlanishi, rentgen apparatining turiga qarab jihozlanish va ish jarayonini tashkil etilishi. Fotolaboratoriya buyumlarining asosiy turlari va xossalari. Rentgen va flyurografiya

6.4 Amaliy konikmalarni baholash bo'yicha topshiriqlar **AMALIY MASHG'ULOTLAR**

RENTGEN KABINETINI ISHGA TAYYORLASH ALGORITMI

Maqsad: Rentgen xonasini xavfsiz, gigiyenik va texnik jihatdan ishga tayyorlash.

Jihozlar: dozimetr, himoya vositalari, dezinfektsiya vositalari, jurnal, rentgen apparati.

Algoritm:

1. Xona gigiyenasini tekshirish – nam tozalash, shamollatish, tartib.
2. Radiatsion himoya – qo'rg'oshin devor/parda, fartuk va qalqonlar holatini tekshirish, dozimetr nazorati.
3. Texnik tayyorgarlik – elektr ulanishi, yerga ulash, boshqaruv paneli, sinov ekspozitsiya.
4. Hujjatlashtirish – texnik jurnal va doza jurnalini to'ldirish.
5. Ishga ruxsat – barcha ko'rsatkichlar me'yorida bo'lsa ish boshlash.

Bemorni rentgen tekshiruviga tayyorlash algoritmi

Maqsad: Bemorni xavfsiz va sifatli tekshiruvga tayyorlash.

Jihozlar: himoya fartuk, yo'llanma, tibbiy karta, markerlar.

Algoritm:

1. Hujjatlarni tekshirish – yo'llanma, shaxsni aniqlash, homiladorlikni so'rash.
2. Tushuntirish – tekshiruv tartibi, harakatsizlik va nafasni ushlab turish.
3. Tayyorlash – metall buyumlarni yechish, kerakli pozitsiya berish, fartuk bilan yopish.
4. Himoya – keraksiz sohalarni qo'rg'oshin bilan yopish, xodimlar himoya ortida turadi.
5. Tekshiruv – ekspozitsiya bajarish va sifatini tekshirish.
6. Yakun – bemorni kuzatish va hujjatlarni rasmiylashtirish.

Rentgen xodimlarining radiatsion xavfsizligini ta'minlash algoritmi

Maqsad: Xodimlarni ortiqcha nurlanishdan himoya qilish.

Jihozlar: shaxsiy dozimetr, qo'rg'oshin fartuk, qalqon, qo'lqop, ko'zoynak.

Algoritm:

1. Shaxsiy himoya – dozimetr taqish va himoya kiyimlaridan foydalanish.
2. Masofa saqlash – manbadan kamida 2 metr uzoqlikda turish.

3. Vaqtni cheklash – ekspozitsiya vaqtini kamaytirish, takroriy suratga yo‘l qo‘ymaslik.
4. Doza nazorati – oyma-oy tekshiruv, yillik me‘yor 20 mZv dan oshmasligi.
5. Sanitariya – ish kiyimi, qo‘l yuvish, dezinfeksiya.

Shaxsiy dozimetrdan foydalanish algoritmi

Maqsad:

Xodim olgan individual nurlanish dozasini aniqlash va nazorat qilish.

Jihozlar:

- Shaxsiy dozimetr (TLD/elektron)
- Himoya fartuk
- Doza nazorati jurnali

Algoritm:

1-bosqich. Tayyorlash

- Dozimetrni tekshirish (butunligi, ishlashi)
- Xodim nomi bilan belgilash

2-bosqich. To‘g‘ri taqish

- Ko‘krak qismiga (fartuk ustidan) taqish
- Doimo ish vaqtida yechmaslik

3-bosqich. Ish jarayoni

- Rentgen tekshiruvlarida doim taqib yurish
- Nurlanish manbaiga yaqinlashtirmaslik

4-bosqich. Nazorat

- Oy oxirida ko‘rsatkichlarni o‘qish
- Jurnalga yozish

5-bosqich. Baholash

- Me‘yor: 20 mZv/yil dan oshmasligi
- Ortiqcha bo‘lsa – rahbarga xabar berish

Rentgen xonasida fon radiatsiyasini o'lchash algoritmi

Maqsad:

Xonadagi radiatsiya xavfsizligini baholash.

Jihozlar:

- Portativ dozimetr yoki radiometr
- Nazorat jurnali

Algoritm:

1-bosqich. Asbobni tayyorlash

- Batareyani tekshirish
- Nolga sozlash (kalibrovka)

2-bosqich. O'lchash

- Apparat o'chirilgan holatda fonni o'lchash
- 3–4 nuqtada (eshik, apparat yonida, operator xonasi)

3-bosqich. Ko'rsatkichlarni qayd etish

- $mZv/soat$ yoki $mkZv/soat$ ko'rsatkichlarini yozish

4-bosqich. Baholash

- Me'yoriy fon darajasi: 0,1–0,3 $mkZv/soat$
- Yuqori bo'lsa – sababini aniqlash, ishni to'xtatish

5-bosqich. Hujjatlashtirish

- Natijalarni jurnalga kiritish

3-AMALIY KO'NIKMA

Rentgen apparatidan chiqayotgan nurlanish dozasini o'lchash algoritmi

Maqsad:

Apparat chiqargan nurlanish miqdorini aniqlash va xavfsizlikni ta'minlash.

Jihozlar:

- Dozimetr yoki ionizatsion kamera
- Himoya vositalari

Algoritm:

1-bosqich. Himoya

- Himoya fartuk va qalqon kiyish
- Operator himoya devori ortida turadi

2-bosqich. Asbobni joylashtirish

- Sensorni bemor joyiga qo'yish
- Masofani aniq belgilash

3-bosqich. Ekspozitsiya

- Sinov rejimida nurlatish
- Ko'rsatkichlarni o'qish

4-bosqich. Hisoblash

- Olingan dozani me'yor bilan solishtirish

5-bosqich. Xulosa

Me'yor oshsa – apparatni sozlash yoki ta'mirlash

Doza nazorati jurnalini yuritish algoritmi

Maqsad:

Radiatsion xavfsizlikni hujjatlashtirish va monitoring qilish.

Jihozlar:

- Doza nazorati jurnali
- Dozimetr ma'lumotlari

Algoritm:

1-bosqich. Ma'lumotlarni yig'ish

- Xodimlar dozimetr ko'rsatkichlarini to'plash
- Kunlik/fon o'lchov natijalarini olish

2-bosqich. Jurnalni to'ldirish

- Sana

- O'lchash joyi
- Doza miqdori
- Mas'ul shaxs imzosi

3-bosqich. Tahlil

- Oldingi ko'rsatkichlar bilan solishtirish
- O'sish dinamikasini aniqlash

4-bosqich. Choralar

- Me'yor oshsa – sababini aniqlash
- Himoya choralari kuchaytirish

5-bosqich. Saqlash

- Jurnalni kamida 5 yil saqlash

Raqamli rentgen apparatini ishga tayyorlash algoritmi

Maqsad:

Raqamli rentgen apparatini xavfsiz, uzluksiz va sifatli diagnostika uchun tayyorlash.

Jihozlar:

DR/CR rentgen apparati, kompyuter, detektor, dozimetr, himoya vositalari, texnik jurnal.

Algoritm:

1. Rentgen xonasining tozaligi, nam tozalash va shamollatish holati tekshiriladi.
2. Elektr ta'minoti va yerga ulash (zazemleniya) nazorat qilinadi.
3. Apparat, kompyuter va dasturiy ta'minot ishga tushiriladi.
4. Detektor va sensorlarning ishlashi sinovdan o'tkaziladi.
5. Sinov ekspozitsiya bajarilib, tasvir sifati baholanadi.
6. Texnik holat jurnalga qayd qilinadi va ishga ruxsat beriladi.

Bemorni rentgen tekshiruviga tayyorlash algoritmi

Maqsad:

Bemorni xavfsiz, to'g'ri va sifatli tekshiruvga tayyorlash hamda ortiqcha nurlanishni kamaytirish.

Jihozlar:

Himoya fartuk, qalqon, yo'llanma blankasi, tibbiy karta, markerlar.

Algoritm:

1. Yo'llanma va bemor shaxsi aniqlanadi.
2. Ayollarda homiladorlik ehtimoli so'raladi.
3. Tekshiruv maqsadi va jarayoni bemorga tushuntiriladi.
4. Metall buyumlar (zanjir, soat, tugma va boshqalar) yechdiriladi.
5. Kerakli anatomik pozitsiya beriladi.
6. Keraksiz tana qismlari qo'rg'oshin fartuk bilan himoyalaniadi.
7. Ekspozitsiya bajarilib, natija baholanadi.

Raqamli tasvirni olish va qayta ishlash algoritmi

Maqsad:

Diagnostic jihatdan aniq va sifatli rentgen tasvirini olish hamda saqlash.

Jihozlar:

Kompyuter, monitor, PACS tizimi, printer.

Algoritm:

1. Olingan tasvir kompyuter monitorida ochiladi.
2. Yorqinlik va kontrast ko'rsatkichlari sozlanadi.
3. Artefaktlar va shovqinlar aniqlanadi.
4. Zarur bo'lsa tasvir kattalashtiriladi yoki kesiladi.
5. Sifatsiz bo'lsa qayta ekspozitsiya bajariladi.
6. Tasvir elektron bazaga (PACS) saqlanadi yoki chop etiladi.

Radiatsion xavfsizlik va doza nazorati algoritmi

Maqsad:

Bemor va tibbiyot xodimlarini ionlovchi nurlanishning zararli ta'siridan himoya qilish.

Jihozlar:

Shaxsiy dozimetr, qo'rg'oshin fartuk, qalqon, qo'lqop, doza nazorati jurnali.

Algoritm:

1. Har bir xodim shaxsiy dozimetr taqadi.

2. Minimal doza rejimi (ALARA prinsipi) tanlanadi.
3. Masofa saqlanadi va himoya devoridan foydalaniladi.
4. Ekspozitsiya vaqti qisqartiriladi.
5. Olingan doza jurnalga qayd etiladi.
6. Me'yor oshsa, sabab aniqlanib profilaktik choralar ko'riladi.

Fotolaboratoriya xonasini ishga tayyorlash algoritmi

Maqsad:

Fotolaboratoriyada rentgen plyonkalarini sifatli qayta ishlash uchun optimal gigiyenik va texnik sharoit yaratish.

Jihozlar:

Qizil chiroq, ventilyatsiya tizimi, termometr, gigrometr, stol, kimyoviy vannalar, rezina qo'lqop, fartuk.

Algoritm:

1. Xonaning yorug'lik o'tkazmasligi (qorong'iligi) tekshiriladi.
2. Qizil xavfsiz chiroq (safelight) ishlashi nazorat qilinadi.
3. Shamollatish va havoni almashtirish tizimi yoqiladi.
4. Harorat 18–22°C, namlik 50–60% me'yorda ekanligi aniqlanadi.
5. Ish stollari va vannalar tozalanib dezinfeksiya qilinadi.
6. Kimyoviy eritmalar tayyor holatga keltiriladi.
7. Xona ishga tayyorligi jurnalga qayd etiladi.

Rentgen plyonkasini qorong'i xonada ochish va joylashtirish algoritmi

Maqsad:

Plyonkani yorug'likdan himoya qilgan holda kasseta ichidan xavfsiz chiqarish.

Jihozlar:

Rentgen kasseta, plyonka, qizil chiroq, stol, qo'lqop.

Algoritm:

1. Oqartirilgan yorug'lik to'liq o'chiriladi, faqat qizil chiroq yoqiladi.
2. Qo'llar toza va quruq bo'lishi ta'minlanadi.
3. Kasseta ehtiyotkorlik bilan ochiladi.
4. Plyonka burchaklaridan ushlab olinadi (yuzasiga tegilmaydi).
5. Plyonka bukilmagan va tirlalmagan holda eritmaga tushiriladi.

6. Kassetta yopilib keyingi foydalanish uchun joyiga qo'yiladi.

Rentgen plyonkasini kimyoviy ishlov berish algoritmi

Maqsad:

Tasvirni aniq va sifatli hosil qilish uchun plyonkaga kimyoviy ishlov berish.

Jihozlar:

Rivojlantiruvchi (proyavitel), fiksator, suv vannasi, termometr, taymer.

Algoritm:

1. Plyonka rivojlantiruvchi eritmaga 18–20°C haroratda 3–5 daqiqa solinadi.
2. Vaqti-vaqti bilan sekin chayqatiladi.
3. So'ng suvda 20–30 soniya yuviladi.
4. Fiksator eritmaga 8–10 daqiqa tushiriladi.
5. Oqava suvda 10–15 daqiqa to'liq yuviladi.
6. Quritish shkafida yoki osilgan holda quritiladi.
7. Tayyor tasvir sifati tekshiriladi.

Fotolaboratoriyada sanitariya-gigiyena va xavfsizlikni ta'minlash algoritmi

Maqsad:

Kimyoviy moddalar va infeksiyalardan himoyalash hamda xavfsiz ish muhitini yaratish.

Jihozlar:

Rezina qo'lqop, niqob, fartuk, dezinfektsiya vositalari, chiqindi idishlari.

Algoritm:

1. Ish vaqtida maxsus kiyim (fartuk, qo'lqop, niqob) kiyiladi.
2. Kimyoviy moddalar bilan bevosita kontakt cheklanadi.
3. Eritmalar yopiq idishlarda saqlanadi.
4. To'kilgan suyuqliklar darhol tozalanadi.
5. Ish joyi har kuni dezinfektsiya qilinadi.
6. Qo'llar ish oxirida sovun bilan yuviladi.
7. Chiqindilar belgilangan tartibda utilizatsiya qilinadi.

Bemorlarning rentgen diagnostik tadqiqotlarida joylashishi – Amaliy ko'nikmalar

Bemorni standart pozitsiyaga joylashtirish algoritmi

Maqsad:

Bemorni rentgen tekshiruviga to'g'ri va xavfsiz joylashtirish, tasvir sifatini maksimal oshirish.

Jihozlar:

Rentgen stoli yoki stend, himoya fartuk, qalqon, markerlar, yostiq va tayanch.

Algoritm:

1. Tekshiruv turi aniqlanadi (plevra, qorin bo'shlig'i, suyaklar va hokazo).
2. Bemor stolda yoki stendda kerakli pozitsiyaga qo'yiladi.
3. Tanani stabilizatsiya qilish uchun yostiq va tayanchdan foydalaniladi.
4. Keraksiz sohalarni qo'rg'oshin bilan yopish.
5. Bemorga harakatsiz qolishi va nafasni ushlab turishi tushuntiriladi.
6. Markerlar qo'yiladi va ekspozitsiya amalga oshiriladi.
7. Tasvir sifatini baholab kerak bo'lsa, pozitsiya biroz o'zgartiriladi.

Bemorning profil va anteroposterior (AP) pozitsiyalarda joylashishi

Maqsad:

Tasvirni diagnostik jihatdan aniq olish va minimal nurlanish dozasini ta'minlash.

Jihozlar:

Rentgen apparati, stend, himoya fartuk va qalqon, markerlar.

Algoritm:

1. Bemor turish yoki yotish pozitsiyasi tanlanadi.
2. AP (anteroposterior) pozitsiya: bemor apparatga qarshi turadi yoki yotadi, tasvir maydoni aniqlanadi.
3. Profil (lateral) pozitsiya: bemor yon tomonga buriladi, markirovka qo'yiladi.
4. Tanani stabilizatsiya qilish uchun tayanchlar va yostiqlardan foydalaniladi.
5. Kerakli ekspozitsiya amalga oshiriladi, himoya vositalari ishlatiladi.
6. Tasvir sifatini tekshirish va natijani saqlash.

Bemor xavfsizligini va ortiqcha radiatsiyani kamaytirish algoritmi

Maqsad:

Bemor va xodimlarni radiatsion xavfdan himoya qilish va doza minimal bo'lishini ta'minlash.

Jihozlar:

Shaxsiy dozimetrlar, qo'rg'oshin fartuk va qalqon, qo'lqoplar, doza nazorati jurnali.

Algoritm:

1. Bemorga himoya fartuk va qalqon taqiladi.
2. Xodimlar minimal nurlanish masofasida yoki himoya devori ortida turadi.
3. Ekspozitsiya vaqtini kamaytirish va ortiqcha takroriy suratga yo'l qo'ymaslik.
4. Dozimetr yordamida olgan doza nazorat qilinadi.
5. Agar me'yor oshsa, sabab aniqlanadi va chora ko'riladi.
6. Hujjatlar jurnalga qayd etiladi.

Pulsni aniqlash va nafas harakatlarini sanash

Harakat algoritmi:

- qo'l yuviladi va quritiladi;
- soat tayyorlab qo'yiladi;
- bemorga muolaja maqsadi haqida tushuncha beriladi;
- bemor qulay vaziyatda o'tqaziladi yoki yotqiziladi;
- bemorning bilak sohasi qo'lga olinadi;
- bilak arteriyasi 2-3-4-barmoqlar bilan topiladi va asta-sekin bosiladi;
- puls aniqlanadi (1 daqiqada);
- puls tezligi sanaladi;
- natija baholanadi;
- qo'l bemorning ko'krak qafasiga qo'yiladi;
- bir daqiqa ichida nafas harakatlari sanaladi;
- puls va nafas harakatlari natijalari baholanadi;
- natijalar bemor tibbiy xaritasiga qayd qilinadi. Harakat varaqasiga nafas harakati soni, puls belgilab qo'yiladi;
- qo'l yuviladi.

2.Arterial bosimni o'lchash

Harakat algoritmi:

- qo'l yuviladi va quritiladi;
- tonometr, fonendoskop tayyorlanadi;
- bemorga muolaja haqida ma'lumot beriladi;
- bemor qulay vaziyatda yotqaziladi (o'tqaziladi);
- bemorning yalang'ochlangan qo'lga tirsak bo'g'imidan 2-3 sm yuqoriga manjetka o'raladi, qo'l va manjetka orasiga 1 ta barmoq sig'ishi kerak;
- tirsak bo'g'imidan yelka arteriyasi topiladi va fonendoskop qo'yiladi;
- manjetkaga rezinali balon yordamida asta-sekin havo beriladi;

- havo bosimi ostida tonometrda simob shisha naychaga ko‘tariladi, arteriyadagi pulsasiya tovushi eshitiladi;
 - tonometrda ko‘rsatgich raqamni esda saqlanadi;
 - vintil ochiladi va asta-sekin havo chiqariladi;
 - fonendoskop tirsak bo‘g‘imiga qo‘yiladi.
 - nokchadagi vintelni yopib, havo yuboriladi, oldingi raqamdan balandroq (20-30 ml simob ustuniga) ko‘tariladi;
 - vintel asta-sekin ochiladi va havo chiqariladi. Tonometr strelkasi asta-sekin tushiriladi;
 - paydo bo‘lgan tovush diqqat bilan eshitiladi va tovush eshitilgan raqam eslab qolinadi, bu **sistolik** bosim deb yuritiladi;
 - paydo bo‘lgan tovushning tamom bo‘lgan payti tonometrda raqam **diastolik** bosim deb yuritiladi;
 - manjetkadagi havo chiqariladi va yechiladi. Bemor o‘z holatiga keltiriladi;
 - arterial bosimni baholab, kerak bo‘lsa vrachgacha bo‘lgan yordam ko‘rsatiladi;
 - olingan ma’lumotlar bemorning tibbiy xaritasiga qayd etiladi;
 - ko‘rsatilgan raqamlar nisbat shaklida (110/70) jadval tarzida harorat varaqasiga qayd etiladi;
- qo‘l yuviladi

3.O‘tkir rinitda UVCH qo‘yish algoritmi:

Muolajani utkazishda № 1 kondensator plastinasidan foydalaniladi

- bemor qulay vaziyatda o‘tiradi;
- burunning ikkala tomonidan ko‘ndalang burchak hosil qilib, 0,5-1 sm oraliq bilan kondensatorlar joylashtiriladi;
- apparat tokka ulanadi, kuchlanish ta’siri 20-40 vt, muolaja vaqti 5-7 min, har kuni. Davo kursi 5-8 muolajadan iborat;
- muolaja tugagach apparat tokdan ajratiladi va kondensatorlar bemor tanasidan olinadi.

4.Qo‘ltik osti gidroadeniti:

- bemor stulga o‘tiradi;
- bemorning qo‘li qulay holatga keltiriladi, qo‘li osilmasligi uchun ikkinchi stul suyanchig‘iga qo‘yadi;
- diametri 3,6 sm li bitta plastina 2 sm oraliq bilan qo‘ltiq osti chuqurchasiga qo‘yiladi;
- diametri 8 sm ikkinchi plastina yelka bo‘g‘imi sohasini ham qamrab oladigan qilib, 4 sm li zazor bilan tegishli kaftga qo‘yiladi;
- apparat tokka ulanadi, kuchlanish ta’siri 20-40 vt, muolaja vaqti 5-7 min, har kuni, davo kursi 5-8 muolajadan iborat;
- muolaja tugagach apparat tokdan ajratiladi va kondensatorlar bemor tanasidan olinadi.

5.Yelka bo'g'imida ultratovushni qo'llash algoritmi:

- bemor qulay vaziyatda o'tiradi;
- kasallangan bo'g'im sohasiga buyuriladi;
- apparatni uzluksiz rejimga va ultratovush intensivligi yelka bo'g'imi uchun $0,2-0,4 \text{ Vt/sm}^2$ ga o'rnatiladi;
- kontakt modda sifatida ta'sir etuvchi sohaga vazelin, analgin yoki gidrokortizon surtiladi;
- apparat dastagidan ushlab bo'g'im sohasiga aylanma harakat qilinadi;
- bemor bunda yengil issiqlikni his qiladi;
bir soha uchun muolaja vaqti 3-5 minut;
- muolaja har kuni yoki kun osha buyurilishi mumkin;
- davo kursi uchun 8-10-15 ta muolaja buyuriladi.

6.Umurtqa sohasiga ultratovush bilan ta'sir ko'rsatish:

Travmatik jarohatlar, umurtqaning destruktiv-degenerativ o'zgarishlarida va yallig'lanishlarning o'tkir va surunkali bosqichlarida qo'llaniladi.

- muolajani bemor yotgan yoki hamshiraga orqasi bilan o'tirgan holda oladi;
- intensivlik $0,2-0,4 \text{ Vt/sm}^2$, uzluksiz rejimda,
- umurtqa o'siqlaridan 2-3 sm chapga va o'ngga uzunasiga va doira shaklidagi harakatlar bilan ta'sir etiladi;
- har bir tomonga 3-5 minutdan yurgiziladi.

7.Butun badanni ho'llab artish:

Butun badanni ho'llab artish – ancha murakkab va yaxshi effekt beruvchi muolajadir, bunda bemorning butun badani suv ta'siriga uchraydi.

- byemor yog'och panjara ustiga chiqib turadi;
- 28 S temperaturali suv bilan choynib hullanadi (suv temperaturasi asta-sekin pasaytirilib, 20S gacha tushiriladi);
- choynabni siqib tashlab, qo'llarini ko'tarib turgan bemor badani u Bilan tez o'raladi;
- muolajani o'tkazayotgan hamshira chap qo'li bilan choynabning erkin uchini bemorning o'ng qo'ltiq ostidan boshlab badan atrofidan o'rab chiqadi;
- so'ngra bemor qo'llarini tushiradi va choynab o'ng hamda chap yelkasi orqali orqasiga yopilib, buyniga bog'lab qo'yiladi;
- badanga yaxshi taqalib turgan choynab ustidan bemor badani tez ishqalanadi;
- ayni vaqtda meditsina hamshirasi yon tomonda turib, bemor badanini oldingi choynabni olib, o'rniga qurug'ini yopadi va shu choynab ustidan *bemor badani zo'r berib va tez artiladi;*
- muolajadan keyin bemorni issiq qilib o'rab, 20-30 minut kushetkaga yotqizib qo'yiladi;
- badanni ishqalash natijasida bemor xush yoqadigan issiqlik seza

boshlaganidan keyin muolaja ta'sirini kuchaytirish uchun choyshabni olmasdan turib, bemorning ustidan burmuncha sovuqroq (24-20S temperaturali) suv quyiladi;
– keyin esa badani yana ishqalanadi. Suv quyishni 2-3 marta takrorlash mumkin.

8.Franklinizatsiya muolajani o'tkazish texnikasi:

- organizmga umumiy ta'sir etish uchun bemor yog'och stulga yechinmay o'tiradi;
- sochlaridagi va cho'ntaklardagi metall buyumlar olinadi;
- elektrod bemor boshidan 10-15 sm uzoqlikda joylashtiriladi va apparat ishga tushiriladi;
- maydon kuchlanishi 40-50 kv, muolaja davomiyligi 10-15 min, har kuni yoki kun osha buyurilishi mumkin, davo kursi 10-15 ta muolaja;
- mahalliy franklinizatsiyada lokal elektrodlardan foydalaniladi;
- buning uchun bemorni ta'sir etish maydonidagi kiyimlar yechiladi;
- 5-7 sm masofada elektrodlar o'rnatiladi;
- muolaja boshlashdan oldin teridagi jarohatlar , yaralar tozalanib, quritiladi;
- maydon kuchlanishi 10-20 kv;
- muolaja davomiyligi 10-15 min, davo kursi 10-12 ta muolaja buyuriladi.

10. Qo'lni yuvish

Harakat algoritmi:

1. Suv yoqiladi va iliq xaroratga keltiriladi, qo'lni yuvayotganda suv kiyimga sachramasligiga ahamiyat beriladi.
2. Qo'llar ho'llanadi va sovun surtiladi.
3. Aylanma harakat bilan qo'l kafti, barmoqlar orasi, qo'l yuzasi yaxshilab yuviladi.
4. Sovun oqar suvda chayilib idishga solinadi, qo'llara oqar suvda yaxshilab yuviladi.
5. Sochiq bilan barmoqlar, kaft, barmoqlar orasi yaxshilab artiladi.
6. Kasalxona ichida yuqumli kasallik aniqlangan bo'lsa, tozalikka va sterillikka ahamiyat berilishi kerak.

11.Dezinfeksiyalovchi eritma tayyorlash

10% li xlorli ohak tayyorlash: 1 kg xlorli ohak, 10 l suv, emal idish, qo'lqop, yog'och kurakcha.

Harakat algoritmi:

1. Qo'lqop, respirator kiyiladi.
2. 1 kg quruq ohak emal idishga solinadi, suv miqdorining yarmisi solinib aralashtiriladi va suvning qolgan miqdori solinadi.
3. Yog'och kurak bilan aralashtiriladi.
4. Emal idish qopoq bilan yopiladi va 24soatga qorong'i joyga qo'yiladi.
5. 24soatdan keyin tindirilgan ohak eritmasi idishlarga solinadi. Ushbu eritmaning yaroqlilik muddati 7 – kun.

Xlorli ohakning ishchi eritmasi.

1. Ishchi eritma har kuni tayyorlanadi.
2. 1% li eritma – 1 l 10 % li xlorli ohakka 9 l suv solinadi.

3. 3% li eritma – 3 l 10 % li xlorli ohakka 7 l suv solinadi.

Xloramin eritmasini tayyorlash.

1. 1% – 990 ml suvga 10 gr xloramin qo‘shiladi.
2. 3% – 970 ml suvga 30 gr xloramin qo‘shiladi.
3. 300 gr xloraminga 9700 ml suv qo‘shiladi.

Eslatma:

1. Dezinfeksiyalovchi eritma solingan idishga tayyorlangan vaqti, % i yozib qo‘yiladi.
2. Dezinfeksiyalovchi eritma – alohida xonada tayyorlanadi va saqlanadi.
3. 10 % li xlorli ohak eritmasi 7-10 kun qorong‘i joyda saqlash va ishlatish mumkin.
4. Ishchi eritma har kuni tayyorlanadi.
5. Xloramin eritmasi ishlatishdan oldin tayyorlanadi.
6. Dez.eritma teriga yoki shilliq pardaga tushsa, darhol oqar suvda yuviladi.

12.Dezinfeksiyalovchi eritma bilan zararlanganda yordam ko‘rsatish

1. Qo‘l yaxshilab yuviladi va quritiladi.
2. 2 % li osh sodasi va sut tayyorlanadi.
3. Zudlik bilan dez.eritma tekkan soha oqar suvda yuviladi.
4. Xonadan toza havoga chiqiladi.
5. Og‘iz va burun bo‘shlig‘i suv bilan chayiladi.
6. Osh sodasi qo‘shilgan iliq sut ichiladi.
7. Dez.eritma ko‘zga tushsa 2% osh sodasi bilan bir necha daqiqa yuviladi.

GLAZGO SHKALASI YORDAMIDA BEMORNING ES-XUSHINI ANIQLASH

Kerakli jihozlar: lotok – 1 ta, igna – 1 ta, probirka – 2 ta, baholash varaqasi – 1 ta

Kerakli xom ashyolar: suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, paxta sharcha – 1 gr,

Bajarish algoritmi:

1. Iгна uchi bilan boshning sochli qismi, yuzi, qo‘llari, badani va oyoqlarining simmetrik o‘ng va chap tomonida og‘riq tekshiriladi.
2. Paxta bo‘lagi yoki cho‘tkacha bilan qo‘l-oyoqlar, tananing o‘ng va chap tomonidagi simmetrik nuqtalarida taktil sezgi tekshiriladi.
3. Probirkadagi issiq va sovuq suvni birma-bir bemor tanasi, qo‘l oyoqlariga tegizib harakat sezgisi tekshirib ko‘riladi.
4. Bo‘g‘in-muskul sezgisi passiv harakatlar (qo‘l -oyoqlarda) bajarib tekshiriladi.
5. Qo‘l, oyoq, umurtqa pog‘onasi aktiv harakatlari tekshiriladi.
6. Romberg pozasiga qo‘yib, tizza - tovon barmoq-burun sinamalarini o‘tkazilib tekshiriladi.
7. Bemor bulimlarini bemor ko‘zi yumilgan holda harakatlantirib yo‘nalishi suraladi.
8. Ko‘z ochilishi
9. Ko‘zlar birdaniga ochilib ketadi -4

10. Ko‘zlar tovushga javoban ochiladi - 3
11. Ko‘zlar og‘riqqa javoban ochiladi - 2
12. Ko‘zlar ochilmaydi - 1
13. Eng yaxshi og‘zaki reaksiya
14. Oriyentatsiya: shaxsga, vaqtga, joyga - 5
15. Chalkashish: gapiradi, ammo chalg‘igan - 4
16. To‘g‘ri kelmaydigan, ammo aniq so‘zlar - 3
- Noaniq tovushlar, so‘zlar talaffuz qilinmaydi - 2
17. Reaksiya yo‘qoladi – 1
18. Eng yaxshi harakat reaksiyasi
19. Qimirlash haqidagi buyruqqa bo‘ysunadi - 6
20. Og‘riq stimullarini ko‘rsatadi - 5
21. Og‘riq stimullariga javob beradi - 4
22. Bukilgan notabiiy holat - 3
23. Egilgan, notabiiy holat - 2
24. Harakat va gavgani tutish yo‘qoladi – 1
25. Mumkin bo‘lgan belgilarning umumiy yakuni 3-15
26. Boshning yirik zararlanishi - 8
27. Boshning o‘rtacha zararlanishi - 9-12
28. Boshning minimal zararlanishi - 13-15

6.5 YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 1

Vaziyatli masala №1

Bemor S., 28 yoshda. Rentgenologik tekshiruvda oldi ko‘ks oralikda qorayish aniqlangan. Bundan tashqari shikoyatlar: toliqishlik, ishlash qobiliyatini pasayishi, terlash, yurak urishi, yurak soxasida og‘riqlar, uyku buzilishi. Yarim yildan beri o‘zini kasal deb xisoblaydi. Ob‘ektiv ma‘lumot: teri nam, barmoqlarda tremor. Puls 96/min, AKB 130/70. Ichki a‘zolar bo‘yicha o‘zgarishlar yo‘q. Qalqonsimon bez palpaslanmaydi. Taxminiy tashxis: oldi ko‘ks ora o‘smasi, qalqonsimon bez distopiyasi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko‘rsating:

1. Rentgenografiya
2. KT
3. Sonografiya,
4. Ssintigrafiya
5. UZI.

Vaziyatli masala №2

Bemor K., 25 yoshda. Shikoyatlar: xars olish, tez charchab qolish, yurak soxasidagi og‘riqlar. Bolalikda revmatizm shiddatli xuruji bo‘lgan. O‘zini 2 yil ichida kasal deb xisoblaydi. Ob‘ektiv tekshirishda: boldir sohalarida teri pastoz, perkussiyada yurak chap chegarasi aksillyar chiziq bo‘yicha, o‘ng tomonda tush suyagi o‘ng qirrasidan 2 sm. tashqarirok. Tomir bog‘lami kengaygan. Auskultatsiyada: yurak chuqqisida

sistolik shovqin, o'pka arteriyasi ustida II tonni kuchayishi. Ps- 88/min. AD-125/80. Taxminiy tashxis: mitral klapanini yetishmovchiligi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya,
2. Angiografiya,
3. Sonografiya (B-rejim),
4. Doppler tekshiruvi
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 2

Vaziyatli masala №1

Bemor K., 35 yoshda. Shikoyatlar: yurak soxasida og'riqlar chap ko'lga irradiyatsiya bilan. Xarsilash yakinda paydo bo'lgan va gorizontal holatda kuchaymokda, uzini ikki hafta davomida kasal deb xisoblaydi. Xarorati o'tkir ko'tarilgan 37,5* gacha, junjishlar bo'lgan. Ob'ektiv tekshirishda buyin teri osti venalar shishgan. Yurak chegaralari xar tomonlama bir xilda kengaygan, yurak tonlari bo'g'ilgan, shovqinlar yo'q. Ps- 100/min, AD- 120/80. Taxminiy tashxis: ekssudativ perikardit.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya
2. Sonografiya (B-rejim)
3. MRT
4. KT
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2

Bemor K., 22 yeshda. Shikoyatlar: quvvatsizlik, tolikishlik, chankoklik va bel soxasida zirkiroq og'riqlar, bosh og'rig'i. Yeshligidan arterial qon bosimi 170/100. Pielonefrit bo'yicha davolangan. Ob'ektiv ma'lumot: chap buyrak paypaslanganda kattalashgan, chegaralari burtgan. O'ng buyrak paypaslapmayapti. Puls 98/min, qon bosimi 170/105. Siydikni nisbiy zichligi pasaygan, leykotsituriya, gematuriya. Eritrotsitlar cho'kish tezligi 35 mm/s gacha ko'tarilgan, leykotsitlar 9800, anemiya, mochevina, kreatinin miqdori oshgan. Taxminiy tashxis: buyrak polikistozi.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Ssintigrafiya
2. Sonografiya (B-rejim),
3. MRT
4. KT
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 3

Vaziyatli masala №1

Bemor A. 47 yeshda. Shikoyatlari: quvvatsizlik, charchash, bel soxasida simmilovchi og'riqlar, o'tkir o'ng tomondan sanchik og'riqlar, xarorat ko'tarilishi. Uzini 5 yildan beri kasal deb xisoblaydi. Oxirgi xurujdan so'ng tosh chikdi. Puls 88, qon bosimi 160/100. Qonda eritrotsitlar chukish tezligi 35 mm/s, leykotsitlar 9600. Siydikda proteinuriya, eritrotsituriya va leykotsituriya. Buyraklar palpaslanmayapti. Taxminiy tashxis: o'ng buyrak tosh kasalligi va uning gidronefrotik transformatsiyasi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Ekskretor urografiya;
2. Sonografiya (B-rejim),
3. Ssintigrafiya
4. KT
5. UZI.

Vaziyatli masala №2

Bemor L., 30 yoshda. Shikoyatlar: o'ng kovurg'a tagida zirkiroq og'riqlar, xolsizlik, kekirish, jigildon kaynashi. Uzini bir yil ichida kasal deb xisoblaydi. Ob'ektiv tekshirishda: teri toza, skleralar subikterik; palpatsiyada- jigar pastgi chegarasi 3-4 sm. pastka chikib turibdi, tekis. Taloq palpasiyanmaydi. Qonda eritrotsitlar cho'kish tezligi, ATF, xolesterin ko'paygan. Taxminiy tashxis: yog'li gepatoz. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Ssintigrafiya;
2. Sonografiya (B-rejim),
3. MRT
4. KT
5. UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 4

Vaziyatli masala №1

Bemor G., 42 yoshda. Shikoyatlar: umumiy xolsizlik, ozayish, o'ng kovurg'a osti soxada og'riqlar, sargayish. Bir yil kasal, gepatit tashxisi qo'yilgan, davolash yordam bermagan. Ob'ektiv tekshirishda: teri va skleralarni sargayishi; palpatsiyada-jigarni pastgi chegarasi 6 sm. pastda, zichlangan, notekis, sezuvchan. Qonda Eritrotsitlar chukish tezligi ko'paygan, anemiya, disproteirniemiya, giperbilirubinemiya. Taxminiy tashxis: jigarni xavfli o'smasi, jigar polikistozi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Ssintigrafiya;
2. Sonografiya (B-rejim),
3. Xolangiografiya.
4. KT

5.UZI.

Vaziyatli masala №2

Bemor M., 28 yoshda. Shikoyatlar: ko'krak kafasini o'ng tomonida og'riqlar, nafas olish qiyinlashgan. 2 soat oldin bemor yeqilgan va stol qirrasiga urilgan. Ob'ektiv tekshirishda: nafas olish 25/min, palpatsiyada VII- VIII kovurg'alar soxasida o'ng aksilyar chiziq bo'yicha og'riqlar, krepitatsiya belgisi mavjud. Perkutor tovush o'ngda qiskargan, o'ngdan nafas olish eshitilmaydi. Taxminiy tashxis: o'pka va kovurg'alarni shikaslanishi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Sonografiya (V-rejim),
3. KT
4. MRT
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 5.

Vaziyatli masala №1.

Bemor G., 40 yoshda. Shikoyatlar: balgam bilan yutal, 38,5* gacha istma chiqishi, xars kilish, xolsizlik, nafas olganda ko'krak kafasini o'ng tomonida og'riqlar. Uzini bir hafta ichida kasal deb xisoblaydi. Kasallik o'tkir xaroratni 39* gacha chiqishdan, xolsizlikdan, bosh og'riqlardan yutalgan boshlangan. Pnevmoniya tashxisi qo'yilgan va davolash boshlangan. Shunda xarorat pasaygan, kasal uzini biroz yaxshi sezgan. Ammo bir kun oldin xaroart yana ko'tarilgan, yutal kuchaygan, xid bilan balgam chiqishi boshlangan. Ob'ektiv tekshirishda: o'pkalarda o'ng tarapda pastki soxalarda perkutor tovushni qiskarishi, nafas olish kamayishi, nam xirillashglar. Eritrotsitlar chukish tezligi ko'tarilgan, leykotsitlar- 9800. Taxminiy tashxis o'ng tomonlama pastkibulak pnevmoniya absesslanish bilan asoratlashgan. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Sonografiya (V-rejim),
3. KT
4. MRT
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor K., 33 yoshda. Shikoyatlar: azobli quruq yutal, ko'krak kafasini chap tomonida nafas olganda kuchayadigan sanchiydigan og'riqlar, 38,5* gacha istma chiqishi. 6 kun davomida kasal, kasallik o'tkir boshlangan. Ob'ektiv tekshirishda: holati majburiy chap tarapida, nafas olish 25/min., ko'krak kafasini chap tomoni nafas olishda kech komokda. Perkussiyada III kovurg'agacha tovush zirkirok. Auskultatsiyada nafas olish pasaygan. Taxminiy tashxis: chap tomonlama plevropnevmoniya, ekssudativ plevrit. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Sonografiya (V-rejim),
3. KT
4. MRT
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .
Variant № 6.

Vaziyatli masala №1.

Bemor Ye., 55 yoshda. Shikoyatlar: quruq yutal, ko'krak kafasini o'ng tomonida og'riqlar, balganda qon aniqlandi, xarorat 37,8* gacha. Besh yil ichida kasal, 20 yil chakadi. Oldin kasallik surmkali bronxit deb olib borilgan. Bir hafta oldin kasallik kuchaygan. Ob'ektiv tekshirishda: teri nam, okargan, yuz shishgan va sianoz bor, perkussiyada o'zgarishlar yo'q, auskultatsiyada o'ng tomonda IV- V kovurg'a soxasida nafas olish pasaygan. Qonda Eritrotsitlar cho'kish tezligi-50mm/soat, leykots- 9200. Taxminiy tashxis: o'ng o'pka raki Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Sonografiya (V-rejim),
3. KT
4. Bronxografiya
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor S, 36 yoshda, temir negiz bilan orqasiga urishganidan so'ng, kuraklar orasida og'riqlar paydo bo'lgan, og'riqlar chukur nafas olganda va yutalganda kuchayadi. Og'riq chap ko'lga o'tadi va shu xolda sezuvchanlik va xolsizlik kuzatiladi. Nevropatolog bemorni tekshirgandan so'ng shikoyatlarni olingan travma bilan bog'ladi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating

1. Rentgenografiya;
2. Ssintigrafiya
3. KT
4. MRT
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 7.

Vaziyatli masala №1.

Bemor M., 40 yoshda. Belda og'riqlarga va xarorat oshishiga shikoyat kiladi. Anamnezda 3 hafta oldin bemorga o'ng boldir suyaklari sinishi sababli ochiq osteosintez kilingan. Osteomielit rivojlanayotganiga shubx bor.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating

1. Rentgenografiya;
2. Ssintigrafiya
3. KT
4. MRT
5. UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor B., 55 yoshda. Kasalni shikoyatlari (umurtka pogonasi bo'yicha og'riqlar, xarakatchanlikni kamayishi), anamnez, ob'ektiv tekshirish natijalariga asoslanib nevropatolog nevrologik buzilishlar bilan asoratlashgan, bel soxasi osteoxondrozi tashxisini kuydi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Ssintigrafiya
3. KT
4. MRT
5. UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 8.

Vaziyatli masala №1.

Bemor N., 35 yoshda. Kasal shikoyatlari (o'ng sonda og'iklar), anamnez va ob'ektiv belgilar (distal metafiz soxasidagi zichlanish) asosida o'ng son suyagi sarkomasi borligi aniqlandi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Sonografiya
3. KT
4. MRT
5. UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor V., 25 yoshda. Shikoyatlari: korin soxasidagi o'tkir og'riqlar, kayt kilish, ich kotishi. Taxminiy tashxis: o'tkir ichak tutilishi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. KT
4. Sonografiya
5. UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 9.

Vaziyatli masala №1.

Bemor F., 38 yoshda. Shikoyatlar: epigastral soxada og‘riqlar, og‘riqlar orqaga tarkaladi, umumiy xolsizlik, terlash. Bu holat bir soat oldin paydo bo‘lgan, korin soxasida o‘tkir og‘riqlardan boshlangan. Anamnezda 10 yil ichida oshkozon yarasi bilan kasal. Ps- 100/min, AB- 105/70, teri okargan, nam, korin tarang, palpatsiyada og‘riqlar bor. Taxminiy tashxis: oshkozon ara kasalligi, perforatsiya bilan asoratlashgan.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko‘rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. KT
4. Ssintigrafiya
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor S., 55 yoshda. Kecha ovkatlanish paytida suyak yutib olgan, bu suyak, bemor suzlaricha, «tomokda tikilgan». Tush suyagi orqasida kattik og‘riqlar sezmokda.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko‘rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. KT
4. Sonografiya
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 10.

Vaziyatli masala №1.

Bemor K., 55 yoshda. Shikoyatlar: epigastral soxada og‘riqlar, ko‘ngil aynashi, xolsizlik, tez charchash, ishtaxa yo‘qligi, ozayish. 2 yil ichida uzini kasal deb xisoblaydi. Surunkali gipoatsid gastrit bo‘yicha davolangan. Ob‘ektiv tekshirishda: epigastral soxani chukur palpatsiyasida zichlangan, og‘riqli modda bor, surilmaydi,, razmerlari 5-7 sm., jigar kattalashmagan. Qonda eritrotsitlar chukish tezligi- 45mm/soat., leyk- 9200. Taxminiy tashxis: oshkozon xavfli o‘smasi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko‘rsating:

1. Rentgenografiya;

2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. KT
4. Sonografiya
5. UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor K., 33 yoshda. 5 yil ichida 12 barmokli ichakni yarasi bilan kasal, kasallik ogir zurayishlar bilan okgan. Konservativ davolash kam natijali bo'lgani uchun, bemorga selektiv vagotomiya utkazilgan. Xirurgik davolashni effektivligini (oshkozonni evakuator qobiliyati, yara nuksoni dinamikasi) tekshirish kerak. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. Ssintigrafiya
4. Sonografiya
5. UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 11.

Vaziyatli masala №1.

Bemor U., 48 yil. Shikoyatlar: disfagiya, xavo bilan kekirish, tush suyagi orqasida og'riqlar. Belgilar asta-sekin bir necha yil ichida rivojlangan. Ob'ektiv tekshirishda: palpatsiyada- epigastral soxada yengil, lokalizatsiyasiz og'riqlar. Jigar va taloq o'zgarmagan. Taxminiy tashxis: kizil o'ngach axalaziyasi.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. Ssintigrafiya
4. KT
5. UZI.

Vaziyatli masala №2.

Surunkali oshkozon yarasi bilan og'rig'an bemorda tez-tez kayt kilish kuzatilmokda. Taxminiy tashxis: oshkozon pilorik qismini stenozi. Oshkozon evakuator funksiyasini tekshirish tavsiya etilgan. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. Ssintigrafiya
4. KT
5. UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 12.

Vaziyatli masala №1.

Shikoyatlar, kasallik anamnezi va ob'ektiv tekshirishlar asosida bemorga yugon ichak o'smasi taxminiy tashxisi qo'yilgan.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. Ssintigrafiya
4. KT
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Shikoyatlar, kasallik anamnezi va ob'ektiv tekshirishlar asosida bemorga kizilo'ngach divertikuli taxminiy tashxisi qo'yilgan.

Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya;
2. Rentgenoskopiya kontrast bilan
3. Ssintigrafiya
4. KT
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 13.

Vaziyatli masala №1.

Bemor A. 47 yeshda. Shikoyatlari: quvvatsizlik, charchash, bel soxasida simmilovchi og'riqlar, o'tkir o'ng tomondan sanchik og'riqlar, xarorat ko'tarilishi. Uzini 5 yildan beri kasal deb xisoblaydi. Oxirgi xurujdan so'ng tosh chikdi. Puls 88, qon bosimi 160/100. Qonda eritrotsitlar chukish tezligi 35 mm/s, leykotsitlar 9600. Siydikda proteinuriya, eritrotsituriya va leykotsituriya. Buyraklar palpaskanmayapti. Taxminiy tashxis: o'ng buyrak tosh kasalligi va uning gidronefrotik transformatsiyasi. Kuyidagi usullar ahamiyatini bu holatda ko'rsating:

1. Rentgenografiya
2. Ekskretor urografiya
3. Sonografiya
4. KT
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor G. 35 yosh. Shikoyatlari – xolsizlik, tez charchash, yo'tal va xarorat oshishiga. Rentgenogrammada o'ng pastki o'pka maydonida ko'p sonli yumaloq

xalqa-simon, diametri 2 sm gacha, devori yupqa bir tekis, atrofida infiltratsiya zonasi bilan soyalar kuzatilmoqda. Chap ildiz pastga tortilgan. Qolgan o'pka maydonlari o'zgarishsiz.

1. Rentgenogramma bo'yicha xulosangiz.
2. Qaysi kasalliklar bilan bu holatni differensial tashxis o'tkazish kerak.
3. Qaysi belgilar differensial tashxisda muxim ahamiyatga ega.
4. Qaysi nur tashxisi usullari diagnostika aniqlash uchun tavsiya etiladi.
- 5.UZI.

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 14.

Vaziyatli masala №1.

Bemor G. 36 yosh. Qorin bo'shlig'i KTida jigarning 6 segmentida, shakli yumaloq, o'lchami 4 sm, gomogen gipodens strukturali, zichligi +30+50 N, chegarali aniq tekis, perifokal o'zgarishsiz tuzilma kuzatilyapti.

1. Xulosangiz.
2. Qaysi kasalliklar bilan bu holatni differensial tashxis o'tkazish kerak.
3. Qaysi belgilar differensial tashxisda muxim ahamiyatga ega.
4. Qaysi nur tashxisi usullari diagnostika aniqlash uchun tavsiya etiladi.
- 5.UZI.

Vaziyatli masala №2.

Bemor S. 64 yosh. Shikoyatlari quvvatsizlik, ozib ketish, xansirash, subfebril xaroratga. Ko'krak qafasi rentgenogrammasida, chap o'pka maydonida total gomogen oqarish kuzatilyapti. Ko'ks oralig'i a'zolari shikastlangan tomonga siljigan.

1. Xulosangiz
2. Qaysi kasalliklar bilan bu holatni differensial tashxis o'tkazish kerak.
3. Qaysi belgi shu kasalliklarni differensial tashxisda muxim ahamiyatga ega.
4. Qaysi nur tashxisi usullari bu holatda qo'shimcha tavsiya etiladi va nima uchun.
- 5.Bemorga kanday tavsiyalar berish mumkin?

YAKUNIY ATTESTATSIYA UCHUN VAZIYATLI MASALALAR .

Variant № 15.

Vaziyatli masala №1.

Bemor S. 64 yoshda. Ko'krak qafasi rentgenogrammasida, chap o'pka 3-segmentida, diametri 5 sm, devorlari qalin, notekis, atrofida infiltratsiya, "ildizga yo'l" simptomli xalqa-simon soya kuzatilyapti.

1. Xulosangiz
2. Qaysi kasalliklarda bu rentgenologik sindrom uchrashi mumkin.
3. Qaysi belgilar shu kasalliklarni differensial tashxisda ahamiyatga ega.
4. Qaysi nur tashxisi usullari bu holatda qo'shimcha tavsiya etiladi va nima uchun.
5. Bemorga kanday tavsiyalar beriladi?

Vaziyatli masala №2.

Bemor Ye., 60 yoshda. Shikoyatlari bel va o'ng oyog'dagi og'riqlarga. Konservativ terapiya samara bermadi. Bel soxasii rentgenogrammasida, umurtqa aro disklar balandligi pasaygan, umurtqa tanalari chetlari o'tkirlangan, kortikal qavat qallinlashgan, umurtqa tanalarida qo'shimcha mayda tog'ayli Shmorl churrallari bor.

1. Xulosangiz
2. MRT ahamiyati.
3. KT ahamiyati.
4. Qaysi usul bu holatda informativroq.
5. Bemorga kanday tavsiyalar beriladi?

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT
VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI
IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON FILIALI "RENTGEN LABORANTI"
YO'NALISHIDAGI ISHCHI O'QUV DASTURI" GA**

TAQRIZ

"Rentgen laboranti" ishchi o'quv dasturining maqsadi: rentgen diagnostikasi yo'nalishda faoliyat olib borayotgan hamshiralarni har tomonlama yetuk, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish, **"Rentgen laboranti"** fanidan yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustaxkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

Shuning bilan birga o'rta tibbiyot hodimlari O'zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chiqarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarni va ular asosida ishlashi. "O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati" fani o'quv dasturiga kiritilgan. "Rentgen laboranti" ishchi o'quv dasturi bo'yicha Respublika davolash profilaktika muassasalarining turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan, keyinchalik rentgen bo'limlarida ish olib borishni rejalashtirgan davolash, akusherlik va hamshiralik ishi yo'nalishlari bo'yicha diplomga ega bo'lgan o'rta tibbiyot xodimlari o'qitiladi. Bugungi kun talablariga muvofiq, mutaxassislarini, faoliyati jarayoniga informatsion va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanishga yo'naltirish maqsadida dasturlariga "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" fanidan soatlar kiritilgan. Ushbu fanlar dasturi o'rta tibbiyot xodimlariga kompyuter asoslari bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni berishga yo'naltirilgan.

Shuningdek ushbu dasturda bugungi kunda nixoyatda aktual bo'lgan "Infekcion nazorat", "Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat", "Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik", fanlaridan iborat bo'lib, o'rta tibbiyot xodimlariga sohadagi zamonaviy, ilmiy va amaliy yutuqlarga tayangan holda, zamonaviy rentgen apparatlarini tuzilishini tahlil qilish, ularda tasvirlar olish, apparatlarni tekshiruvga tayyorlash, ular bilan ishlashda texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish, rentgen xonasi hamshirasining burch va vazifalarini mukammal o'rganish. "Rentgen diagnostika" bo'yicha tegishli xar bir mavzu o'quv materiallari tariflab berilgan va ushbu mavzuni to'liq o'zlashtirish hamda talabga muvofiq yetarli nazariy va amaliy bilimlarni egallash uchun zarur bo'lgan xajmda taqdim etilgan.

Ushbu dastur asosida o'qitilgan hamshiralalar zamon talablari, tibbiyot fani yutuklari asosida bilim olishlariga ishonchim komil.

**Tibbiy radiologiya
kafedrasi professori, t.f.d.:**


A.A. Ablyazov

ning imzosi qo'yilgan

Xodimlar bo'limi boshlig'i



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKA XODIMLARINI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI ANDIJON
FILIALI "RENTGEN LABORANTI" YO'NALISHIDAGI ISHCHI O'QUV
DASTURI"GA**

T A Q R I Z

Ushbu ishchi o'quv dasturi mamlakatimizda axoliga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, sog'liqni saqlash tizimini islox qilish jarayonida zamonaviy apparatlar bilan ishlash, ularni axoli orasida samaradorligini oshirishda hozirgi zamon xamshiralarning muxim roli, bemorlarga tez va sifatli tashxis qo'yishdagi bilimlarini oshirishga qaratilgan.

"Rentgen laboranti" yo'nalishidagi malaka oshirish sikli bo'yicha kasbiy o'quv modul ishchi o'quv reja asosida Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o'qituvchilari va tibbiy ta'limni rivojlantirish markazi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu kasbiy modul dasturi bo'yicha "Rentgen laboranti" guruhlarida mehnat faoliyatida uzilish bo'lmagan va uch yildan ortiq rentgen bo'limi laboranti lavozimida ishlagan o'rta tibbiyot xodimlari o'qitiladi.

Shuning bilan xamshiralarga bo'limdagi bemorlarga samarali roentgen diagnostika usullarini tadbiq etgan holda organ va sistemalarning funksiyasidagi o'zgarishlarni zamonaviy asbob uskunalar yordamida aniqlab, kasalliklarga tez va to'g'ri tashxis qo'yish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, aholini dispanser ko'riklaridan o'tkazib profilaktik ko'riklar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan, bo'limlaridagi apparaturalar bilan ishlash bo'yicha mavzular keng yoritilib berilgan.

Ishchi dastur asosida olib boriladigan mashg'ulotlar davomida tinglovchilar malaka oshirish markazi o'quv auditoriyalarida, Respublika davolash profilaktika muassasalarining funksional diagnostika bo'limlarida, o'qitiladi va tibbiyot sohasidagi yangiliklar, tibbiyotdagi zamonaviy tekshiruv usullari, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar oladilar. Nazariy mashg'ulotlar ma'ruzalar, suxbatlar va boshqa turli shakllarda markaz yoki o'quv maskani o'quv xonalarida, amaliy mashg'ulotlar esa, asosan funksional diagnostika bo'limlarida olib boriladi.

Tibbiy radiologiya kafedrası
katta o'qituvchisi, t.f.n., :



N.I. Yakubov

